



UDK: 811.111'344+811.512.133'344

Nasir RADJABOV,

O'zbekiston Resp. Oriental universiteti professori v.b., filologiya fanlari doktori

E-mail: nasirnasimovich@mail.ru

Ф.ф.д., DSc S.Hoshimova taqrizi asosida

FACTORS OF INTERFERENCE IN THE PHONEMIC SYSTEM OF LANGUAGE

Annotation

This article is dedicated to the topic "Factors of Interference in the Phonemic System of Language," where it thoroughly analyzes the various factors of phonemic interference and their impact on the phonemic system. The article examines the articulatory-acoustic, perceptual, phonological, morphonological, phonostylistic, graphemic, orthographic, and orthoepic aspects of phonemes. Additionally, the article discusses the specific significance of each of these aspects in pronunciation and how they manifest as interference. The interconnections between different aspects of phonemes are explained with theoretically grounded examples. In the conclusion, the article highlights that the articulatory-acoustic, perceptual, phonological, morphonological, phonostylistic, graphemic, orthographic, and orthoepic peculiarities of phonemes characteristic of different languages are the main interference factors encountered in the phonemic system of language, which play a crucial role in the perfection of pronunciation.

Key words: Phoneme, articulation, acoustic, perceptual, phonological, morphonological, phonostylistic, graphemic, orthographic, orthoepic.

TILNING FONEMIK TIZIMIDA INTERFERENSIYA OMILLARI

Annotatsiya

Maqola "Tilning fonemik tizimida interferensiya omillari" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda fonemalar interferensiyaning turli omillari va ularning fonemik tizimga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Maqolada fonemaning artikulyatsion-akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlar alohida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada yuqorida qayd etilgan har bir jihatning talaffuzdagi o'ziga xos ahamiyati, ularning interferensiya tarzida namoyon bo'lishi batafsil yoritilgan. Fonemaning turli jihatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nazariy jihatdan asosli misollar bilan izohlangan. Maqola so'nggida, turli tillarning tovush tizimiga xos fonemalarning artikulyatsion-akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlaridagi o'ziga xosliklar tilning fonemik tizimida uchraydigan asosiy interferensiya omillari bo'lib, ular talaffuzning mukammal bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi, deb xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: Fonema, artikulyatsiya, akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik, orfoepik.

ФАКТОРЫ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ В ФОНЕМНОЙ СИСТЕМЕ ЯЗЫКА

Аннотация

Данная статья посвящена теме «Факторы интерференции в фонемной системе языка», в которой подробно анализируются различные факторы фонемной интерференции и их влияние на фонемную систему. В статье рассматриваются артикуляционно-акустический, перцептивный, фонологический, морфонологический, фоностилистический, графемный, орфографический и орфоэпический аспекты фонем. Кроме того, в статье обсуждается специфическая значимость каждого из этих аспектов в произношении и их проявление в виде интерференции. Взаимосвязи между различными аспектами фонем объясняются на теоретически обоснованных примерах. В заключении подчеркивается, что артикуляционно-акустические, перцептивные, фонологические, морфонологические, фоностилистические, графемные, орфографические и орфоэпические особенности фонем, характерные для различных языков, являются основными факторами интерференции, встречающимися в фонемной системе языка и играющими важную роль в совершенствовании произношения.

Ключевые слова: Фонема, артикуляция, акустический, перцептивный, фонологический, морфонологический, фоностилистический, графемный, орфографический, орфоэпический.

Kirish. Tillarning fonetik tizimlari va ularning o'zaro ta'siri, lingvistika tadqiqotlarining muhim jihatlaridan biridir. Interferensiya, til o'rganishda yoki ko'p tilli shaxslar nutqida yuzaga keladigan muammolardan biri bo'lib, bu jarayon turli fonetik elementlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi, ya'ni bir tilning fonemik tizimi boshqa tilning fonetik tizimi bilan o'zaro aloqaga kirishishi bilan bog'liqdir. Interferensiyaning bir nechta omillari mavjud bo'lib, ularning har biri til o'rganish jarayoniga ta'sir qiladi, bunda tilni o'rganayotgan shaxsning ona tili va yangi o'rganilayotgan tilning fonetik xususiyatlari o'rtasidagi tafovutlar katta rol o'ynaydi. Ona tili va o'rganilayotgan chet til tovush tizimlaridagi har bir o'ziga xoslik bir tipdagi nutq tovushlari majmuyi bo'lgan fonemalar interferensiyaning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan asosiy omillar sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nutq tovushlari odatda fiziologik (nutq tovushlarining hosil bo'lish o'rni), fizik (nutq tovushlarining balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqligi), perseptiv (eshitib his etish) va lingvistik (so'z shakli va ma'nosini tanituvchi va farqlovchi vazifasi) jihatdan o'rganiladi [6]. Nutq tovushlarining fiziologik jihatida ularning artikulyatsiya-yasi bilan

bog'liq o'ziga xosliklari, fizik jihatida ularning akustik belgilari, perseptiv jihatida ularning eshitilishi yoki eshitib, his qilinishiga oid xususiyatlari, lingvistik jihatida ularning tildagi (so'z shaklini tanituvchi va ma'no farqlovchi) vazifalari tadqiq qilinadi. Nutq tovushlarining artikulyatsion-akustik, hamda perseptiv jihatlarini umumlashtirilib, ularning fonetik xususiyatlari; lingvistik jihatida esa nutq tovushlarining fonologik xususiyatlari, deb talqin qilinadi. Shuningdek, nutq tovushlari morfonologik [11], fonostilistik [9], orfoepik [1] jihatdan; nutq tovushlari shaklida namoyon boladigan fonemalar grafemik [4], orfografik [10], nuqtayi nazaridan ham tadqiq qilinadi. V.A. Vassilev fonemaga ham moddiy (aniq), ham mavhum tushuncha sifatida yondashib, uning bir-biri bilan chambarchas bog'langan uchta – material (aniq), mavhum (umumlashgan) hamda funksional jihatlarini borligini va bu jihatlarini o'zaro ajratib bo'lmastligini ta'kidlaydi [16]. Fonemaning material (fizik) jihatida uning artikulyatsion-akustik nuqtayi nazardan aniq bir nutq tovushi shaklida namoyon bo'lishida; mavhum jihatida uning umumiylik xarakteriga ega ekanligida; funksional jihatida uning so'z shakli va ma'nosini farqlash xususiyatida aks etadi [16].

ma'noga ta'siri, asosan, uning miqdor belgisidagi o'zgarish orqali yuzaga keladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, miqdor belgisi, ya'ni tovush cho'ziqligi odatda, fonema tovushining fonetik xususiyati sanaladi. Bunda so'zning denotativ ma'nosini ifodalash uchun yetarli bo'ladigan cho'ziqlik darajasi nazarda tutiladi. Denotativ ma'no uchun muhim bo'lgan tovush cho'ziqligining uslubiy maqsadda oshirilishi so'zning konnotativ ma'nosini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Konnota-tiv ma'noni yuzaga keltiradigan fonetik hodisalar fonostilistik aspektida o'rganiladi. Uslubiy maqsadda nutq tovushlarining cho'ziqroq talaffuz qilinishi, tovush cho'ziqligining fonostilistik xususiyati hisoblanadi. Bu o'rinda tovushning fonologik cho'ziqligiga yana bir bor to'xtab o'tish tovush cho'ziqligi borasida chalkashlikka yo'l qo'ymaslik nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq bo'ladi. Tovush cho'ziqligi-ning fonologik xususiyati yuqorida ta'kidlanganidek, fonemaning so'z shakli va ma'nosini (denotativ ma'no) farqlashga bo'lgan xizmati sanaladi. Demak, tovush cho'ziqligining fonetik, fonologik va fonostilistik xususiyatlarini benuqson farqlash lozim. Bu o'rinda shuni alohida qayd etish kerakki, tovush cho'ziqligining fonostilistik xususiyati odatda uning fonetik xususiyati ichida tadqiq qilinib, so'zning turli xil konnotativ ma'nolarini hosil qilish fonetik cho'ziqlikka xos deb qaraladi [12]. Bu fikrga to'liq qo'shilgan holda shuni ta'kidlash joizki, nutq tovushlarining fonetik, fonologik va fonostilistik xususiyatlari aslida bir obyektning uch xil jihati hisoblanadi. Shu boisdan mazkur uchala xususiyat, umuman olganda, bir fan – fonetikaning tadqiqot obyekti (nutq tovushlari) doirasida tadqiq qilinadi. Bundan ke-lib chiqadiki, nutq tovushlarining fonetik cho'ziqligi ham, fonologik va fonostilistik cho'ziqligi ham aslida bir fonetik hodisa – tovush cho'ziqligining uch xil jihati sanaladi. Tovush cho'ziqligining har uchala jihati o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, ularning farqi tovush cho'ziqligining lingvistik vazifasidan kelib chiqadi. Tovush cho'ziqligi vazifasiga ko'ra so'zning odatdagi ma'nosini ifodalashi (urg'uli unlining urg'usiz unliga nisbatan cho'ziqroq talaffuz etilishi), so'zning semantik ma'nosini farqlashi yoki so'zning ma'nosiga uslubiy qo'shimcha ma'no yuklashi mumkin. Shuni hisobga olgan holda, tovush cho'ziqligi so'zning denotativ ma'no-sini ifodalashgagina xizmat qilsa, uni fonetik cho'ziqlik; so'zning denotativ (se-mantik) ma'nosini farqlashga xizmat qilsa, uni fonologik cho'ziqlik; so'zning deno-tativ ma'nosiga qo'shimcha konnotativ ma'noni ifodalashga xizmat qilsa, uni fono-stilistik cho'ziqlik deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fonemalarni turli nuqtayi nazardan tadqiq qilishda ularning artikulyatsion-akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik va fonostilistik xususiyatlari bilan bir qatorda, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlarini ham nazardan chetda qoldirmaslik muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, fonema tovushlarini meyor doirasida talaffuz qilishda fonemalarning fonetik-fonologik xususiyatlari bilan ularning grafemik, orfografik va orfoepik jihatlarini o'rtasida o'zaro uzviy bog'liqliklar borligini rad etib bo'lmaydi. Jumladan, L.R. Zinder fonetika va

orfografiyaning o'zaro aloqador ekanligini ta'kidlab, shu nuqtayi nazardan, umumiy fonetika fonetik yozuv nazariyasini ham qamrab olishi zarur, degan fikrni ilgari surgan edi [3]. Fonemalarning yozma nutqda ifodalanish qonuniyatlariga xos xususiyatlari ularning grafemik jihati bo'lib [2], bunda harf va fonema o'rtasidagi munosabatlar tadqiq qilinadi. Fonemalarning yozuvdagi shakli bo'lgan harflar tizimi – alifboning yozuvda qo'llanish xususiyatlari, ya'ni imlo qoidalari fonemalarning orfografik jihati sanalib [13], bunda nutq tovushlarining so'zlar tarkibida eshitilishi va yozilishi o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xosliklari o'rganiladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, fonema yozma nutqda alohida yoki boshqa fonema vakillari bilan uyushgan holda ifodalanishi mumkin. Fonemaning yozuvdagi alohida shakli odatda, ularning alifbo tarkibida, boshqa fonema vakillari bilan birikib kelishi esa ularning ma'lum bir so'z tarkibida uchrashida namoyon bo'ladi. Fonemaning yozma nutqda "alohida" ifodalanishidagi o'ziga xosliklar grafemik, so'z tarkibida qo'llanishi bilan bog'liq xususiyatlar orfografik jihatdan tadqiq qilinadi. Fonema tovushlarining artikulyatsion-akustik xususiyatlari asosida ularning talaffuz meyorlariga xos qoidalar shakllanadi. Fonemalarning adabiy talaffuz me'yorlariga xos qoidalar tizimi ularning orfoepik jihati sanaladi [13]. Bunda fonema to-vushlarining meyoriy talaffuz qonuniyatlariga xos xususiyatlari talqin qilinadi. Masalan, unli fonemalarning urg'uli va urg'usiz holatdagi, undosh fonemalarning yondosh tovushlar ta'siridagi allofonlarining o'ziga xos talaffuzlari shular jumlasidandir.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan fikrlarni xulosa qilib aytganda, tildagi fonemalar o'zlari yoki allofonlari misolida tadqiqot maqsadiga bog'liq holda, asosan, artikulyatsion-akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik, orfoepik nuqtayi nazarlaridan tadqiq qilinadi. Bunday tadqiqotlar ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim sanaladi. Nazariy jihatdan ular fonemaning qayd etilgan aspektlaridagi "ochilmagan" qirralarining aniqlanishi, amaliy jihatdan esa fonema tovushlarining talaffuzini samarali o'zlashtirishga hissa qo'shishi bilan ahamiyatli sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, fonemaning artikulyatsion-akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlarining har biri bir fonema doirasida yuzaga keladigan turli nutq tovushlari talaffuzini mukammal o'zlashtirishda teng ahamiyat kasb etadi. Til o'rganish, xususan, xorijiy til o'rganish jarayonida mazkur jihatlardan birining nazardan chetda qolishi fonema tovushlarining talaffuzini o'zlashtirishda u yoki bu turdagi "to'siqlar"ning ya'ni, fonemik interferensiyaning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Demak, turli tillarning tovush tizimiga xos fonemalarning artikulyatsion-akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlaridagi o'ziga xosliklar tilning fonemik tizimida uchraydigan asosiy interferensiya omillari bo'lib, ular talaffuzning mukammal bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Арустамян М.И. Интерференция согласных в русской речи армян: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ереван, 2003. – 25 с.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Энциклопедия, 1966. – С.117.
3. Зиндер Л.Р. Общая фонетика. – М.: Высшая школа, 1979. – С.282.
4. Кузьмина Т.В. Функциональный анализ фонемно-графических соответствий в письменной речи детей (на материале согласных): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2005. – 28 с.
5. Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. – Москва: Просвещение, 1976. – 288 с.
6. Максумов А.Г. Артикуляционные, акустические, перцептивные и фонологические характеристики английских носовых сонантов (а сопоставлении с узбекскими): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1972. – 37 с.
7. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Т.: Фан, 2013. – 424 б.
8. Рогозная Н.Н. К вопросу о графической интерференции при обучении русскому языку иностранцев // Вопросы филологии. – 2003. – №1. – С. 90-98.
9. Сапарова К.О. Проблемы сегментной и суперсегментной (акцентной) фоностилистики русского языка: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Т., 2000. – 25 с.
10. Тью Ф.А. Орфографические отражения неправильного произношения у вьетнамских учащихся: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2013. – 22 с.
11. Кудайбергенов М. Корақалпоқ тилида морфологик ҳодисалар: Филол. фан. д-ри. дисс: Автореф. – Нукус, 2004. – 35 б.
12. Ҳайдаров А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши: Филол. фан номз. дисс: Автореф. – Тошкент, 2009. – 35 б.
13. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзб. Мил. Энциклоп. Нашр., 2002. – 164 б.
14. Leontyeva S.F. A theoretical course of English phonetics. – Moscow: Vyssaja skola, 1980. – 271 p.
15. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006. – 476 б.
16. Vassilyev V.A. English Phonetics (A Theoretical Course). – Moscow: High School Publ. House, 1970. – 324 p.